



TIJORAT BANKLARIDA KREDIT FOIZIGA TA'SIR ETUVCHI
OMILLARNING STATISTIK TAHLILI

Abdullayev Shahobiddin Shamsiddinovich

Ilmiy tadqiqotchi Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti "Iqtisodiy statistika" kafedrasida tayanch doktoranti.

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi tijorat banklarida kredit foiz stavkalariga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar tahlil qilinadi. Shuningdek, foiz stavkalarini belgilash jarayonida statistik usullarning qo'llanilishi va O'zbekiston misolida amaliy natijalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, kredit foizi, inflyatsiya, regressiya tahlili, asosiy stavka, statistik tahlil.

Tijorat banklari mamlakat iqtisodiyotida moliyaviy vositachilik vazifasini bajarib, ishlab chiqarish, tadbirkorlik va ijtimoiy sohalarni kredit resurslari bilan ta'minlab kelmoqda. Kredit foiz stavkalari iqtisodiyotning muhim moliyaviy instrumenti bo'lib, ularning darajasi milliy iqtisodiy barqarorlik va bank tizimi rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda moliya-bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar kredit siyosatini liberallashtirish, kredit resurslari hajmini oshirish va foiz stavkalarini pasaytirishga qaratilgan.

Iqtisodiy nazariyada foiz stavkalarining shakllanishiga oid bir necha yondashuvlar mavjud. Keynsiylik nazariyasiga ko'ra, foiz stavkasi pulning likvidlik afzalligi bilan belgilanadi. Kutilmalar nazariyasi esa uzoq muddatli foiz stavkalari qisqa muddatli foiz stavkalari haqidagi kutilmalarga asoslanishini ta'kidlaydi. Tijorat banklari uchun esa kredit foiz stavkasi bankning asosiy daromad manbai va resurslarni taqsimlash vositasi hisoblanadi.

Kredit foiz stavkalariga ta'sir etuvchi omillarni ichki va tashqi guruhlariga ajratish mumkin:

- Bank resurslarining qiymati (jalb qilingan depozitlar bo'yicha foiz stavkalari);
- Kredit portfeli sifati va muammoli kreditlar ulushi;
- Bank likvidligi va to'lovga layoqatlilik darajasi;
- Banklararo raqobat sharoiti;
- Risklarni boshqarish mexanizmlari.

2. Tashqi omillar:

- Markaziy bankning asosiy stavkasi;
- Inflyatsiya darajasi;
- Milliy valyuta kursi barqarorligi;
- Yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sish sur'atlari;
- Moliyaviy bozorlar rivojlanish darajasi.

Statistik tahlil (O'zbekiston misolida)


Yil	Markaziy bank asosiy stavkasi	Tijorat banklari o'rtacha kredit	Inflyatsiya darajasi (%)	YaIM o'sishi (%)
-----	-------------------------------	----------------------------------	--------------------------	------------------




	(%)	stavkasi (%)		
2020	15.0	22.0	11.1	1.6
2021	14.0	21.0	10.9	7.4
2022	16.0	23.0	12.3	5.7
2023	14.0	21.0	9.2	6.0
2024	14.0	20.0	8.8	5.8

I-jadval. 2020–2024 yillarda O‘zbekiston bo‘yicha kredit foiz stavkalari, Markaziy bank asosiy stavkasi, inflyatsiya darajasi va YaIM o‘shishi ko‘rsatkichlari.

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va ochiq iqtisodiy manbalar asosida tuzilgan



1-rasm. 2020–2024 yillarda Tijorat banklari kredit stavkalari va asosiy stavka tahlili.
Manba: Muallif tomonidan tadqiqot natijalari asosida tayyorlangan.





2-rasm. 2020–2024 yillarda Tijorat banklari kredit stavkalari va asosiy stavka tahlili.

Manba: Muallif tomonidan tadqiqot natijalari asosida tayyorlangan.

Masalan, 2022-yilda Markaziy bank asosiy stavkasi 16 foiz etib belgilandi. Shu davrda tijorat banklari kredit stavkalari o'rtacha 23 foizni tashkil qildi. 2023-yilda asosiy stavka 14 foizga pasaytirildi va kredit stavkalari ham 21 foizgacha tushdi. Bu holat asosiy stavka tijorat banklari kredit siyosatiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi.

Tijorat banklarida kredit foiz stavkalari turli omillar ta'sirida shakllanadi. Statistika tahlil natijalariga ko'ra, Markaziy bankning asosiy stavkasi va inflyatsiya kredit foizlariga eng katta ta'sir ko'rsatmoqda. Foiz stavkalarini pasaytirish uchun banklar resurs bazasini mustahkamlashi, raqobatni oshirishi, risklarni samarali boshqarishi lozim. Shuningdek, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, inflyatsiyani jilovlash va valyuta kursining barqarorligini saqlash muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklari kredit foiz stavkalari ko'plab ichki va tashqi omillarga bog'liq holda shakllanadi. So'nggi yillarda olib borilgan statistik tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, Markaziy bank asosiy stavkasi va inflyatsiya darajasi kredit stavkalariga eng katta ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, YaIM o'sishi ham muhim makroiqtisodiy omil sifatida kredit siyosatini belgilashda ahamiyat kasb etmoqda. Kelgusida foiz stavkalarini barqarorlashtirish uchun bank tizimida risklarni samarali boshqarish, depozit bazasini kengaytirish, raqobatni kuchaytirish va moliyaviy bozor infratuzilmasini rivojlantirish zarur hisoblanadi.

Shuningdek, xalqaro tajriba ham shuni ko'rsatadiki, kredit foiz stavkalarining pasayishi tadbirkorlik sub'ektlari uchun qulay sharoit yaratib, investitsion muhitni yaxshilaydi va iqtisodiyotning barqaror o'sishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari – www.cbu.uz
2. Gujarati D. Basic Econometrics. – New York: McGraw-Hill, 2021.
3. Abduraxmonov Q. Bank ishi asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bank-moliya tizimini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari.